



XALQ DEPUTATLARI ARNASOY TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 22-iyul

VII-21-86-3-43-K/26

Arnasoy tumani

Arnasoy tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnoma asosida qattiq maishiy chiqindilarini olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori 8-bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman (shahar)lar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga ruxsat berilishi, bunda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi belgilab qo‘yilgan.

Tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflari yuzasidan 2026-yil 22-maydagi 33-sonli xatni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlarva byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflari yuzasidan tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari X.Berdiyevning axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Sanitar qoidalari va me‘yorlariga asosan hududlar bo‘yicha o‘rnatilgan me‘yorlardan iste‘molchining faoliyat turidan, joylashuvidan va xizmatidan foydalanish usulidan kelib chiqib iste‘molchi tomonidan 1 m³ QMCH (qattiq maishiy chiqindilar) hajmi uchun yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning qattiq maishiy chiqindilarini markaziy chiqindi saqlash obyektiga olib borib joylashtirish xizmat haqi summasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (N.Kamalov), tuman tibbiyot birlashmasi (E.Turayev), tuman sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo‘limi (M.Ergashev), O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (N.Isanov) fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Avalboyev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



**BAYANASOV
BOBIR
OCHILOVICH**

Xalq deputatlari Arnasoy tumani
Kengashining
2026-yil 22-iyuldagi
VII-21-86-3-43-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko'chalari bo'yidagi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnoma asosida qattiq maishiy chiqindilarini olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko'rsatish bo'yicha to'lov tariflari

Xizmat ko'rsatiladigan shaxslar	Tip, marka, artikul yoki model raqami	O'lchov birligi	Tarif miqdori (so'm)
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning qattiq maishiy chiqindilarni markaziy chiqindi saqlash obyektiga olib borib joylashtirish (QQS bilan)	QMCH	1 m ³	62700